



# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
**2022**



# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruviy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

#### Muassis: Buxoro davlat universiteti

**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otobek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor*

*To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhiddinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanova, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbanova Gulnoz Ne‘matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Nargiza RAFIYEVA. O'zbek kitobot va miniatura san'ati .....	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang'icn sinf o'quvcnilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish .....	129
Baxrom MADRIMOV. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash ....	132
Sanoqul DO'STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO'ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyatি .....	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o'rta ta'lif tizimi islohotlarida musiqa madaniyati .....	143
To'xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati .....	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalash yo'llari .....	149
Ilhom QO'SHAYEV. An'anaviy musiqiy merosni o'rganishni metodik takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lif mazmuni .....	152
Ibrohim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati .....	154
Sadriddin GULOV. O'zbekiston maktablarida musiqa cholg'ulariga yo'naltirishning zamonaviy ilg'or innovatsiyalari .....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)159	
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta'lifni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению .....	163
To'lqinjon Muxamedov. Boshlangich sinf o'quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish .....	167
O'g'iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. "Shashmaqom" nasr (ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balarini) o'rgatish yo'llari.....	171
Olimxo'ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to'garaklarida o'quvchilarni skripka cholg'u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma'rifat UMUROVA. Maktabgacha ta'lif muassasasida o'yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе .....	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO'SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo'llari....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования “Изобразительное искусство и инженерная графика” .....	193
Olimxo'ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish .....	195
Olimxo'ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo'shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O'zbek musiqa san'atining qadimiy ildizlari tarixidan .....	200
Abror AZIMOV. Zardushtiyya va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san'at tarixi va turlari .....	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug'diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO'ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini shashmaqomning nasr bo'limi vositasida axloqiy estetik tarbiyalash .....	206
Sanoqul DO'STOV, Zilola RUZIYEVA. O'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg'usining o'rni va tarbiyaviy ahamiyati .....	208
Mehrinisho Begmurodova. Maktabgacha ta'lif muasasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi ma'naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o'rni .....	212
Umidbek BOLTAYEV. Milliy musiqiy meros-o'quvchilar estetik tarbiya vositasi .....	214
Uchqun BOLIYEV. Ma'naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish .....	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari .....	219
Adilshoda TO'YMURDOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining ijodkorligi .....	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor qo'shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo'shig'ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo'shiqlarining maktab darsliklaridagi o'rni .....	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlari tarbiyasidagi ahamiyati .....	233

Halim HASANOV

Buxoro davlat universiteti  
musiqa kafedrasи o'qituvchisi

## VATANGA SADOQAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIK (MUSIQA FANI MISOLIDA)

*Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida vatanga sadoqat hissini shakllantirishning fanlararo aloqadorlik omillarining mohiyati yoritilgan.*

**Kalitso'zlar:** integratsiya, vatanga sadoqat, vatanparvarlik, fanlararo, musiqiy meros.

*В данной статье рассматривается значение межпредметных факторов в формировании чувства патриотизма на уроках музыкальной культуры.*

**Ключевые слова:** интеграция, патриотизм, междисциплинарность, музыкальное наследие.

*This article discusses the importance of interdisciplinary factors in the formation of a sense of patriotism in the lessons of music culture.*

**Key words:** integration, patriotism, patriotism, interdisciplinary, musical heritage.

**Kirish.** Yosh avlodni ajdodlarimiz an'analari, qadriyatlar va madaniyati asosida tarbiyalash, ularda vatanga sadoqat hissini shakllantirishda milliy-musiqiy merosimiz alohida o'rin tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, xususan, umumiy o'rtta ta'lim maktablarida o'qitiladigan har bir fan, sinfdan tashqari olib boriladigan har bir tadbirdan o'quvchilarni vatanparvarlik, o'z vataniga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish o'ta muhim va dolzarb masaladir. Chunki mamlakat va xalqning taqdiri kelajagimiz vorisi bo'lgan ana shu yoshlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi va ularning ma'naviy-mafkuraviy barkamolligiga bog'liqdir.

**Asosiy qism.** O'quvchilarda vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlikning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, nazariy jihatdan asoslash va o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish muhim. Umumiy o'rtta ta'lim o'quvchilarida vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlikning pedagogik muammo ekanligini asoslash, vatanparvarlik tuyg'usining ifodalanishiga oid tarixiy tajribalarni o'rganish va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish lozim. Bu umumiy o'rtta ta'lim jarayonini fanlararo aloqadorlikda o'quvchilarda vatanga sadoqat hissini shakllantirishga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar, qarashlar, tavsiyalar bilan boyitish imkonini beradi.

O'quvchilarning umumiy o'rtta ta'lim maktablarida o'tkazgan davri davomida sinf, mакtab jamoasi, oila, mahallada o'z o'rnini topa olishida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Aniq mazmuni asosida o'tkaziladigan musiqa darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va umumiy tarzdagi musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Musiqa darslarining haqiqiy ta'lim-tarbiya vositasiga aylanishida o'qituvchining bilimi, iqtidori, jonkuyarligi, targ'ibotchiligi, mehribonligi, maslahatgo'yligi yetakchi ahamiyatga ega. Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga kirib, hissiyotlarini junbushga keltira oladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarimsharlaridagi asab turlarining eng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvati zaxiralari saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zaxiralarini harakatga keltira oladi.

**Muhokamalar va natijalar.** O'quvchi shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch-shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaralgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir. Mavzu jihatidan turlicha bo'lgan bolalarbop qo'shiqlarni muntazam ravishda o'rganib borish, ijro etish mакtab o'quvchilarining nafaqat repertuarini boyita boradi, balki ularning milliy ma'naviyatimizga bo'lgan muhabbatini oshiradi, umumiy dunyoqarashlarini kengaytiradi va axloqiy tuyg'ularining shakllanishiga yordam beradi. Bu tuyg'ular g'oyat ko'p qirrali va xilma-xildir. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri - yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, vatan va millat oldidagi burch va ma'suliyatini his etishga o'rgatishdan iboratdir. O'quvchilarda vatanga sadoqat hissini shakllantirishga oid tarixiy tajribalarga boy xalq qo'shiqlari, o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shilib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli


olamiga yetaklab ketadi. Xalq qo'shiqlari faqat estetik joziba olami bo'libgina qolmay, o'ziga xos katta bir ta'lism tarbiya quroli hamdir. Chunki inson his-hayajonining zamirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hislar, xulosalar ham yotadi. Vatanga sadoqat hissini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning yangidan yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa o'quvchida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning o'quvchilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

G'azal mulkining sultoni shoир va mutafakkir Alisher Navoiy nomi va asarlarini faxr va g'urur bilan tilga olamiz. Adolatli jamiyat barpo qilishdek ulug'ver va ezgu maqsad haqida, odillik, haqiqat va halollik xususida mulohaza yuritar ekanimiz, o'zbek mumtoz adabiyoti porloq siymosi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida tasvirlangan bir necha voqeа tafsilotiga o'z e'tiborimizni qaratamiz.

**Xulosa** qilib aytganda, Vatanparvarlik tuyg'usi inson mehnati, hayot tajribasi asosida sayqal topib, e'tiqodga, ruhiy mohiyatga aylanadi va inson ongida, qalbida chuqur o'rashadi, ajdodlar o'giti bilan singadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lism islohoti ham yoshlarni kelajak hayotga, turmushga tayyorlash bilan bog'liqdir.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. Hasanov H.R. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlikning pedagogik asoslari// Monogrofiya. -Buxoro: "Durdona", 2021.
3. Zaripov K.Z., Olimov Sh. O'quvchilarda axloqiy-estetik idealni shakllantirish. – "Xalq ta'lumi", 2001, 5-son.
4. To'rayev F.J. Xalq qo'shiqlari va milliy tarbiya// "Xalq ta'lumi" jurnali. 2001-yil, 1-son, 81-83-betlar.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali mакtab, kollej,  
institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qо‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qо‘lyozmalari universitet  
tahririyanashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi  
23402000000100001010  
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
**BuxDU 400110860064017950100079002**

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2022-yil  
maxsus son**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda mакtab o‘qituvchilar, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**  
**Alijon HAMROYEV.**  
**Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.**  
**Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova**

Jurnal tahririyat kompyuterida  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 08.06.2022  
Bosmaxonaga topshirish vaqtி

13.06.2022

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Sharhti bosma tabog‘i – 20,6  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 314  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.